

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOVAR BELGILARINI MADRID TIZIMI ORQALI
RO‘YXATGA OLISH

Toshkent – 2024

1. Madrid bitimi

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tovar belgisining xar qanday davlatning hududidagi huquqiy muhofazasi uni ro'yxatga olish kuchga kirgandan so'ng yuzaga keladi. Faqat ro'yxatga olingandan keyingina talabnoma beruvchi tovar belgisining egasi degan maqomni va belgi uchun tegishli mutlaq huquqlarni oladi. Shuning uchun tovar belgisining xorijiy ro'yxatga olinishi o'z maxsulotini o'sha mamlakatga eksport qilayotgan korxonalar biznesi muvaffaqiyatli bo'lishining majburiy shartlaridan biri hisoblanadi. Buning aksida mahsulot eksport qiluvchini raqobatchilar yoki "qaroqchilar" oldida himoyasiz qilib qo'yadi va bu ularga o'zlarining ko'pincha sifatsiz bo'lgan mahsulotlarini boshqalarning tovar belgisi ostida jazolanishdan cho'chimay sotish imkoniyatini beradi.

Ixtirolar kabi tovar belgilari ham bir necha yo'llar bilan xorijda ro'yxatga olinishi mumkin.

Birinchi yo'li Parij Konvensiyasidan iborat. Belgilarni ro'yxatga olish ixtirolar va sanoat namunalari patentlash amaliyotiga o'xshashdir. Asosiy farq Konvensiya imtiyozi ixtirolar holatidagi kabi 12 oyni emas, balki 6 oyni tashkil qilishidan iborat.

Agar talabnoma beruvchi (mahsulotni eksport qiluvchi)ning manfaatlari tovar belgisini o'z miqdordagi mamlakatlarda himoya qilish bilan bog'liq bo'lsa, Parij Konvensiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Strategik manfaatlari tovar belgisini ko'pgina mamlakatlarda himoya qilishdan iborat bo'lgan talabnoma beruvchi uchun boshqa yo'l Belgilarni ro'yxatga olishning Madrid tizimining tartiblari hisoblanadi.

Madrid tizimi bir vaqtning o'zida bir necha davlatlarda amal qiladigan tovar belgilarini ro'yxatga olishning xalqaro tizimidan iborat.

Hozirgi vaqtda Madrid tizimi bir-biriga mutanosib ravishda amal qiladigan ikkita mustaqil tartiblarni o'z ichiga oladi:

1. Belgilarii xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi Madrid Bitimining tartiblari;

2. Belgilarii xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi Madrid Bitimiga Bayonnomaning tartiblari (Madrid bayonnomasi).

O'zbekistonlik talabnoma beruvchilar uchun O'zbekiston a'zosi bo'lgan Madrid Bitimining tartiblari qulay va foydali hisoblanadi. Madrid bayonnomasiga kelsak, O'zbekiston hali uning a'zosi bo'lganicha yo'q, demak mamlakatimizdagi talabnoma beruvchilar uning afzalliklaridan foydalana. olmaydilar.

Madrid Bitimining tartiblarini ko'rib chiqamiz.

Madrid Bitimining mohiyati shundan iboratki, bitimning ishtirokchi mamlakatlardan biri (kelib chiqish mamlakati)da ro'yxatga olingan tovar belgisi BIMT Xalqaro byurosi (Jeneva)da xalqaro ro'yxatga olish yo'li bilan boshqa ishtirokchi mamlakatlarda soddalashtirilgan tartibda muhofaza qilinishi mumkin. Ushbu Bitimga muvofiq ro'yxatga olish xalqaro ro'yxatga olish hisoblanadi, chunki har bir bunday ro'yxatga olish muhofaza so'ralayotgan barcha mamlakatlarda kuchga ega. Ya'ni talabnoma beruvchidan boshqa ishtirokchi mamlakatlarda milliy ro'yxatga olish uchun xech qaanday qo'shimcha hatti-harakatlar talab qilinmaydi. (xalqaro patent berish

ko'zda tutilmaydigan ixtirolar uchun RST tizimidan tubdan farq qilishiga alohida e'tibor bering).

Talabnoma beruvchi tomonidan tovar belgisining uz mamlakati (belgining kelib chiqish mamlakati)ning milliy patent idorasida dastlabki ro'yxatga olinishi tovar belgisini xalqaro ro'yxatga olish yo'lidagi birinchi qadam deb hisoblanishi mumkin. Milliy patent idorasida ro'yxatga olinmagan tovar belgisini xalqaro ro'yxatga olish mumkin emas.

Tovar belgisini xalqaro ro'yxatga olish uchun talabnoma kelib chiqish mamlakatining milliy patent idorasi orali BIMT xalqaro byurosiga taqdim etiladi. Talabnoma tarkibiga maxsus blankada tuzilgan ariza va ro'yxatga olish uchun talabnoma berilayotgan belgining tasviri kiradi. Talabnoma xalqaro ro'yxatga olish so'ralayotgan tovar va xizmatlar uchun ro'yxat, shuningdek ularning MKTU bo'yicha toifasini uz ichiga olishi kerak. Madrid Bitimining rasmiy tili fransuz tili hisoblangani sababli, xalqaro talabnomaning barda materiallari faqat fransuz tilida tuziladi.

Xalqaro talabnoma taqdim etishda belgilangan miqdorda xalqaro bojni to'lanishi zarur.

Milliy patent idorasi xalqaro ro'yxatga olish uchun talabnomani olgandan keyin uning ro'yxatga olingan milliy tovar belgisiga mos kelishini tekshiradi va talabnoma berish sanasini belgilaydi. Agar talabnoma o'rnatilgan talablarga mos kelsa, milliy patent idorasi talabnomani Xalqaro byuroga jo'natadi.

Xalqaro byuro talabnomani olgandan keyin zudlik bilan ushbu tovar belgisini ro'yxatga oladi. Shundan so'ng tovar belgisi xalqaro ro'yxatga olinganligi to'g'risida

talabnoma beruvchini, talabnoma beruvchi o'z belgisini muhofaza qilishni so'rayotgan mamlakatlarning milliy patent idoralarini xabardor qiladi va BIMT chop etadigan davriy byulletenda xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr qiladi.

Madrid Bitimiga muvofiq, ro'yxatga olingan tovar belgisining amal qilishi tarqaladigan har bir davlat ushbu belgi milliy ro'yxatga olish talablariga to'g'ri kelmasa, bir yil (12 oy) mobaynida xalqaro ro'yxatga olishni tan olmay, rad etish huquqiga ega. Biroq bir yildan keyin xalqaro ro'yxatga olingan belgini rad etish mumkin emas. Agar yil davomida bunday rad etish hollari qayd etilmasa, xalqaro ro'yxatga olish undan kelib chiqadigan mutlaq huquqlar bilan birga milliy ro'yxatga olish kuchiga ega buladi.

Xalqaro ro'yxatga olishning amal qilish muddati 10 yilni tashkil qiladi hamda uni bir necha bor xuddi shunday davrga uzaytirish mumkin bo'ladi.

Xalqaro belgining besh yil davomidagi huquqiy muhofazasi uning kelib chiqish mamlakatida mavjud bo'lishiga bog'ligligini ta'kidlab o'tish joiz. Ya'ni kelib chiqish mamlakatida belgining amal qilishi to'xtasa, xalqaro ro'yxatga olish xam o'z kuchini yo'qotadi. Bitimning bu qoidasi "markaziy hujum" deb nom oldi. Ushbu besh yillik davr tugaganidan keyingina xalqaro ro'yxatga olish milliy ro'yxatga olishdan to'liq mustaqil bo'ladi.

Madrid Bitimi bo'yicha xalqaro ro'yxatga olish tartibi xam tovar belgilarining egalari, xam milliy patent idoralari uchun bir qator afzalliklardan iborat:

- Talabnomani turli tillarda, har bir mamlakatda alohida berish hamda xar bir milliy idoraga boj to'lashning

o‘rniga talabnoma beruvchi faqat bitta tilda (fransuz) bitta talabnomani berish va bitta organ (Xalqaro byuro)ga bojni to‘lash yo‘li bilan Bitimning ishtirokchi mamlakatlarda belgini ro‘yxatga olishni amalga oshiradi.

· Milliy patent idoralari uchun Madrid Bitimining afzalligi ishlar hajmining sezilarli qisqarishidan iborat. Masalan, rasmiy ekspertiza o‘tkazish, tovar va xizmatlarning tasnifini aniqlashtirish, xalqaro tovar belgilarini nashr qilish va boshqalarga zarurat o‘z-o‘zidan yo‘qoladi. Bundan tashqari, Xalqaro byuro oladigan bojlarning bir qismi tovar belgisini muhofaza qilish so‘ralayotgan mamlakatlarga beriladi.

2. Madrid bitimiga Bayonnoma tartiblari

Yuqorida ta’kidlanganidek, Madrid Bitimining tartiblari talabnoma beruvchilar va patent idoralari uchun bir qator muhim afzalliklarga ega.

Biroq, talabnoma beruvchilar uchun Madrid Bitimining kamchiligi uning ishtirokchilari orasida AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi muhim mamlakatlarning yo‘qligi hisoblanadi. Madrid Bitimining qoidalari bu mamlakatlarni to‘liq qanoatlantirmaydi, masalan, bir mamlakatda belgini huquqiy muhofaza qilishning kelib chiqish mamlakatidagi uning huquqiy holatiga bog‘liqligi va hokazo.

Bunday kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun 1989 yilda alohida Bitimdan iborat Madrid Bitimiga Bayonnoma imzolandi. Bayonnoma Madrid Bitimini istisno etmasligi yoki qoidalarining qandaydir qismi o‘rnini bosishini bildirmasligini ta’kidlaymiz. Bayonnoma kuchga kirganidan so‘ng Madrid Bitimining barcha tartiblari avvalgi ko‘rinishda amal qilishda davom etadi. Bunday

ikkita bir-biriga mutanosib bitimning paydo bo'lishiga Madrid Bitimining ko'pgina ishtirokchi davlatlari 1891 yildan beri amal qilayotgan va ularni qanoatlantirayotgan mexanizmni xavf-xatarga quyishni istamasliklari sabab bo'ldi.

Talabnoma beruvchi uchun muhim bo'lgan Bayonnoma tartiblarining Madrid Bitimidan asosiy farqlari quyidagilardan iborat:

- xalqaro ro'yxatga olish nafaqat milliy ro'yxatga olishga, balki tovar belgisi uchun milliy talabnomaga asoslanishi mumkin;

- milliy idora tomonidan belgining xalqaro ro'yxatga olinganligini o'z hududida tarqatishni rad etish to'g'risidagi qarorni qabul qilish muddati bir yildan 18 oygacha, nizoli holatlarda esa undan xam uzoq muddatga uzaytirilgan;

- "markaziy xujum" o'tkazish munosabati bilan bekor qilingan belgini xalqaro ro'yxatga olish ilgarigi ustuvorlik sanasi bilan milliy (mintaqaviy) talabnomalarga aylantirilishi mumkin;

- Bayonnomaning ishtirokchi davlatlari belgini milliy ro'yxatga olishdagi kabi boj summasini olishi mumkin. Bu, ayniqsa, milliy bojlar miqdori belgilangan xalqaro bojlarnikidan yuqori bo'lsa muhimdir;

- xalqaro ro'yxatga olish muddati xalqaro ro'yxatga olish sanasidan boshlab o'n yilni tashkil etadi hamda uni bir necha bor xuddi shunday davrga uzaytirish mumkin bo'ladi;

- xalqaro talabnomani nafaqat fransuz, balki ingliz tilida xam taqdim etish mumkin.

Hozirgi vaqtda Madrid Bitimi va Madrid Bayonnomasi uchun Madrid Ittifoqining qarori bo'yicha

yagona Yo‘riqnoma amal qiladi. Yagona Yo‘riqnomaning qabul qilinishi Madrid Tizimining yaxlitligini ta’kidlaydi va ikki tartibning o‘xshash qoidalari va farqlarini yaqqol ko‘rish imkonini oladigan talabnoma beruvchilar uchun qulay hisoblanadi.

Xulosa qilib ta’kidlab o‘tamizki, 1999 yilning oxirida 3576888 ta xalqaro ro‘yxatga olish kuchda bo‘lgan. 2000 yil davomida ularga xar birida 12 ta mamlakat ko‘rsatilgan 20072 ta yangi ro‘yxatga olish qo‘shildi, ya’ni ushbu yangi xalqaro ro‘yxatga olishlar 264 ming milliy talabnomaga tengdir.